



Falsafa fanining predmeti, muammolar doirasi

Usmanova Shohsanamxon

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Mehribon Sotvoldiyeva Iqboljon qizi

Mohlaroy Alijonova Adhamjon qizi

Oysara Yo'lchiboyeva Sharifjon qizi

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafa faniga kirish, unga oid ma'lumotlar va muammolar haqida bayon qilinadi. Falsafaning dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb, xalqimiz ma'naviy me'rosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi. Ushbu fan barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'tilishi belgilangan bo'lib, o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, unga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik, kreativ tafakkurni hosil qiladi.



Kalit so'zlar: Falsafa, muammo, filosofiya, etika, estetika, ijtimoiyfalsafa, aksintologiya, ontologiya, falsafiyantropologiya, gnoseologiya, borliq, odam, olam, substansiya.

Аннотация: В данной статье описывается введение в науку философия, информация и проблемы, связанные с ней. Актуальностьнауки философии определяется необходимостью решения актуальных проблем, возникающих в сфере духовности в эпоху глобализации, сохранения и дальнейшего совершенствования духовного наследия нашего народа, формирования философского мышления молодежи, защиты ее сознания от различных вредных идей, вооружения философскими знаниями. Этот предмет предполагается проходить во всех курсах довузовского образования, он воплощает общественно-политические и духовные взгляды разных эпох, формирует понимание сущности событий и явлений, развивает аналитическое, синтетическое и творческое мышление.

Ключевые слова: Философия, проблема, философия, этика, эстетика, социальная философия, аксинтология, онтология, философская антропология, гносеология, существование, человек, вселенная, субстанция.

Abstract: This article describes an introduction to the science of philosophy, information and problems related to it. The relevance of the science of philosophy is determined by the need to solve urgent problems arising in the field of spirituality in today's era of globalization, to preserve and further enhance the spiritual heritage of our people, to form the philosophical thinking of young people, to protect their minds from various harmful ideas, and to arm them with philosophical knowledge. This subject is prescribed for all undergraduate education programs, and embodies the socio-political and spiritual views of different eras, forms an understanding of the essence of events and



phenomena, and forms an attitude towards them, and forms analytical, synthetic, creative thinking.

Keywords: Philosophy, problem, philosophy, ethics, aesthetics, social philosophy, axintology, ontology, philosophical anthropology, epistemology, being, man, world, substance.

Kirish. Falsa fani hoyatda qadimiy fandir. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Falsafa esa — barcha fanlar rivojlanishiga asos bo'ladigan va ulardan oziqlanadigan, ayni paytda ularning rivojlanish yo'llarini belgilab beradigan umum insoniy va universal fan. U qadim zamonlarda yoq «barcha ilmlarning otasi» deb ta'riflangan. Uning hayotiyliigi xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechoqli mos ekani, jamiyat manfaatlari va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq.

Falsafa predmeti: Falsafa fani xuddi ijtimoiy, tabiiy fanlar singari mustaqil fandir. U o'zining mustaqil obyekti va predmetiga ega. Falsafaning predmetini “olam-odam-inson” tizimi tashkil etadi. Falsafa predmeti uning rivojlanish davri mobaynida uzluksiz o'zgarib turgan. Falsafa muammolari uning predmeti bilan belgilanadi. Ma'lumki, falsafa predmeti tarixiy rivojlanish jarayoni mobaynida sezilarli darajada o'zgargan. Falsafiy fanlarning har biri: ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik, falsafatarixi ham o'zaro alohida predmetiga ega. Shu tufayli ham falsafa predmetini faqat o'ta abstract tushunchalar yordamida belgilash mumkin.

«Dunyo – inson» tizimidagi munosabatlarning rang-barangligi predmetli – amaliy, gnoseologik, akseologik, estetik, axloqiy va boshqa xil munosabatlar bilan belgilanadi. Quyidagilar falsafiy bilimning strukturasi hisoblanadi:



- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya – qadriyatlar haqidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafiy muammolar: Falsafa fanining muammolari, o'z xususiyatlariga ko'ra, umumiy yoki xususiy, azaliy yoki o'tkinchi bo'lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo'lgan davridayoq vujudga kelgan bo'lib, toki odamzod mavjud ekan, yashayveradi. Chunki, insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo'yilaveradi. Ularni o'rganish jarayonida ilm-fan, falsafa taraqqiy etib bormoqda. Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq ko'pdan-ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining umumiy va azaliy muammolari sirasiga kiradi.

Falsa faol asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu masala “substansiya” tushunchasi va uning mazmuni qanday tushunilishiga qarab o'zoga xos ifodalangan.”Substansiya”deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to'g'risidagi fikr tushunilgan. Yunoniston faylasufi va matematigi Pifagor, hamma narsa sonlardan tashkil topgan, degan bo'lsa, Aflotun substansiya-g'oyalardir, degan. Demokritesa, olamning asosida atomlar yotadi deb tushuntirgan.

Xulosa: Mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda. Yurtimizda sodir bo'layotgan yaratuvchanlik tafakkur bilan uzviy bog'liq hodisadir.



Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimiz falsafiy iqtidoriga bo'lgan talab shuncha oshib boradi. Shuninguchunham falsafa ilmi yoshlarga ham o'rta yoshlilarga ham, katta yoshdagilarga ham bab-barobar suv bilan havodek zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojdir. Bu ilm o'zining tabiatiga ko'ra chegara bilmaydi. Mazkur chegara bilmas ilmni egallashning mohiyatini bilmaslikdan bilishga, bilishdan komillikka tomon yo'naltirilgan faoliyat tashkil qiladi. Falsafa ilmi milliy, ayni vaqtda umum insoniy qadriyatdir. Mazkur qadriyat inson o'zini o'zi inson sifatida tanigan kunidan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, ilmiylashib va tobora insoniylashib borayotgan fandır.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. Falsafa / M. Axmedovanning taxriri ostida. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.